



TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Murodova Fotima Shavkat qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Maktabgacha ta’lim” kafedrası talabasi

E-mail:murodovfotima2004@gmail.com

(+998) 91 724-00-35

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20710866>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-iyun 2026 yil
Ma’qullandi: 5-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 16-iyun 2026 yil

KEY WORDS

*Innovatsiya, pedagogik
texnologiya, interfaol usullar,
ta’lim samaradorligi,
raqamlashtirish, metodika.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarning tutgan o’rni, ularning o’quvchilar bilimni shakllantirishdagi ahamiyati va dars jarayoniga tatbiq etish usullari yoritilgan.

Kirish: Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va uni jahon standartlari darajasiga ko’tarish ustuvor vazifadir. An’anaviy ta’lim usullari o’quvchini faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvchi passiv subyekt sifatida ko’rsa, innovatsion pedagogik texnologiyalar uni mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo’llash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, musiqa ta’limida zamonaviy yondashuvlar o’quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda dars jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar orqali o’quvchilar faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllanadi.

Asosiy qism: Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati o’quvchi shaxsini rivojlantirish, unda mustaqil va ijodiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Musiqa ta’limi, xususan, musiqa savodxonligi darslari ham ushbu jarayondan mustasno emas. An’anaviy dars berish usullaridan voz kechib, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishini oshirishning eng samarali yo’lidir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar musiqa darslarida quyidagi muhim funksiyalarni bajaradi:

Motivatsiyani kuchaytirish. O’quvchi uchun qiyin va zerikarli tuyulishi mumkin bo’lgan nazariy tushunchalar (masalan, intervallar yoki gammalar) innovatsion usullar orqali qiziqarli o’yinga aylantiriladi.

Axborotni o'zlashtirish tezligi. Multimedia vositalari (video, audio, animatsiya) orqali berilgan ma'lumot bolaning xotirasida ancha uzoq saqlanadi.

Faollikni oshirish. "Aqliy hujum", "Klaster", "Bumerang" kabi interfaol metodlar o'quvchini darsning passiv tinglovchisidan uning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Musiqqa savodxonligini oshirishda ayniqsa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi katta ahamiyatga ega. Bunda har bir o'quvchining musiqiy eshitish qobiliyati, ovoz diapazoni va ritm hissi inobatga olingan holda individual yondashuv amalga oshiriladi. Pedagog olim J.Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, "Innovatsiya — bu darsning faqat texnik vositalar bilan jihozlanishi emas, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi yangicha munosabat, darsning yangicha mazmunidir".

Innovatsion texnologiyalar deganda o'quv jarayoniga yangicha yondashuvlar, vositalar va usullarni olib kirish tushuniladi. Ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

Interfaol metodlar: (Aqliy hujum, Case-study, Klaster) – o'quvchilarning jamoada ishlash va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT): Multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta'lim platformalari. Loyiha asosida o'qitish (Project-based learning): Muayyan muammoni hal qilish orqali nazariy bilimlarni amaliyotga bog'lash.

Muhokama: Innovatsion texnologiyalarni qo'llashda ba'zi qarama-qarshiliklar ham kuzatilmoqda. Masalan, pedagoglarning texnologik savodxonligi darajasi va maktablarning moddiy-texnik bazasi turlicha ekanligi pedagogik natijalarga ta'sir qilmoqda. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vizual va interfaol usulda berilgan ma'lumotlar an'anaviy ma'ruza usulidan ko'ra 40-60% samaraliroq o'zlashtiriladi.

Natijalar: Tadqiqotimizning yakuniy bosqichida tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan mashg'ulotlarning natijalari qiyosiy tahlil qilindi. O'quvchilarning musiqqa savodxonligi darajasi, musiqiy asarlarni idrok etishi va amaliy ko'nikmalari maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholandi.

O'tkazilgan tahlillar va pedagogik tajribalar natijasida quyidagilar aniqlandi:

O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi ortdi.

Murakkab mavzularni vizuallashtirish orqali tushunish vaqti qisqardi.

Bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi 25% ga yaxshilandi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, innovatsion pedagogik texnologiyalar shunchaki yordamchi vosita emas, balki ta'lim sifatini kafolatlovchi asosiy omildir. Ular o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi masofani qisqartirib, ta'limni demokratik va erkin jarayonga aylantiradi. Musiqqa savodxonligi tushunchasi faqatgina nota yozuvlarini bilish yoki kuylash texnikasini o'zlashtirish bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayon o'quvchining musiqiy eshituv qobiliyati, ritm hissi, estetik didi va badiiy tafakkurining o'zaro uyg'unlikda rivojlanishini nazarda tutadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlari ularning musiqiy axborotni obrazli qabul qilishga moyilligini ko'rsatadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida vizual va eshitish organlarining bir vaqtda ishlashini ta'minlash yuqori natija berishi ilmiy jihatdan isbotlandi.

Takliflar: O'qituvchilarning AKT bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish uchun qisqa muddatli kurslarni o'paytirish. Darsliklarni AR (to'ldirilgan borliq) texnologiyalari bilan boyitish. Maktablarda musiqqa xonalarini zamonaviy cholg'u asboblari va texnik vositalar (proyektor, ovoz kuchaytirgichlar) bilan to'liq jihozlash; Musiqqa darsliklarining elektron ilovalarini ko'paytirish va ulardan foydalanish metodikasini takomillashtirish;

O'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish uchun sinfdan tashqari xor va ansambl to'garaklarini muntazam tashkil etish. Har bir fan bo'yicha maxsus raqamli resurslar bazasini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhammedov R.J., Abduqodirov A.A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" – Toshkent, 2010.
2. Gulyamov S.S. "Zamonaviy ta'lim usullari" – Toshkent: Fan, 2018.
Hattie, J. "Visible Learning for Teachers" – Routledge, 2012.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020
4. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
5. Ishmuhammedov R.J., Abduqodirov A.A., Paradaev A.H. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar (pedagog mutaxassislar uchun amaliy tavsiyalar)". – Toshkent: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.
6. Sayidaxmedov N.S. "Yangi pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: "Moliya", 2003. – 232 b.
7. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish". – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2008.
8. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari". – Toshkent: "Fan", 2006.
9. Ziyomuhammedov B. "Pedagogik mahorat asoslari". – Toshkent: "TIB-KITOB", 2009.
10. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. "Innavotsion pedagogika". – Toshkent: "

INNOVATIVE
ACADEMY